

SAMARQAND VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI

2020-yilning yanvar - mart oyida

QURILISH ISHLARI

2020-yilning yanvar-mart oylarida Samarqand viloyatida 838,9 mlrd. so'mlik qurilish ishlari bajarilib, o'sish sur'ati o'tgan 2019-yilning shu davriga nisbatan 108,2 % tashkil etdi.

Shuningdek, yirik tashkilotlar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi 35,2 mlrd. so'mni tashkil etib, o'sish sur'ati o'tgan yilning mos davriga nisbatan 3,1 marttani tashkil qildi.

Kichik tashkilotlar va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi 560,1 mlrd. so'mni tashkil etib, o'sish sur'ati o'tgan yilning mos davriga nisbatan 106,1 % tashkil qildi.

Norasmiy sektorda qurilish ishlari hajmi 243,6 mlrd. so'mni yoki o'tgan yilning shu davriga nisbatan 103,2 % tashkil etdi.

Qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari



Qurilish ishlari jami

hajmi **838,9 mlrd. so'm**

o'sish sur'ati **108,2 %**



Yirik qurilish tashkilotlari

hajmi **35,2 mlrd. so'm**


ulushi **4,2 %**



Kichik korxona va mikrofirmalar

hajmi **560,1 mlrd. so'm**

ulushi **66,8 %**



Norasmiy sektor

hajmi **243,6 mlrd. so'm**

ulushi **29,0 %**

Qurilish ishlaringning faoliyat turlari bo'yicha tarkibi



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlaringning asosiy qismi qurilish loyihalarini ishlab chiqish, turar joy va yashash uchun mo'ljallangan binolar qurish hamda yashash uchun mo'ljallanmagan binolarni qurish bo'yicha amalga oshirilgan qurilish ishlaridan tashkil topdi. Ularning hajmi 704,4 mlrd. so'mni yoki jami hajmga nisbatan 83,9 % ni, o'sish sur'ati 162,7 % tashkil etdi.

Fuqarolik qurilishi obyektlarini qurish bo'yicha qurilish ishlari hajmi joriy davrda 71,2 mlrd. so'mni yoki jami hajmga nisbatan 8,5 % ni, o'sish sur'ati 84,6 % ni tashkil etdi. Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari 63,3 mlrd. so'mni yoki jami hajmga nisbatan 7,6 % ni, o'sish sur'ati 89,8 % ni tashkil etdi.




Kichik qurilish tashkilotlari va mikrofirmalar asosan sotish uchun mo'ljallangan uy -joylarni qurish, avtomobil yo'llarini ta'mirlash , yangi qurilish, rekonstruksiya, ijtimoiy soha obyektlari (maktablar, maktabgacha ta'lim muassasalari), namunaviy loyihalar asosida qurilayotgan va arzonlashtirilgan uy-joylar qurilishida o'z faoliyatlarini amalga oshirmoqda.

Iqtosodiy faoliyat turlarining mulkchilik shakli bo'yicha qurilish ishlari (*mlrd. so'm*)

**Ixtisoslashtirilgan qurilish
ishlari**

**Fuqarolik obyektlari
qurilishi**

Bino va inshootlar qurilishi



Mulkchilik shakllari bo'yicha qurilish ishlari

Mulkchilikning nodavlat shaklidagi qurilish tashkilotlari tomonidan 829,3 mld. so'mlik qurilish ishlari bajarilgan bo'lib, jami qurilish ishlari hajmining 98,8 foizini tashkil qildi va ushbu ko'rsatkich o'tgan yilning o'sish sur'atiga nisbatan 10,2 punktga ko'paydi



Mulkchilikning davlat shaklidagi qurilish tashkilotlari tomonidan 9,6 mld. so'mlik qurilish montaj ishlari bajarilgan bo'lib, jami qurilish ishlari hajmidagi ulushi 1,2 % ini tashkil qildi




Hududlar kesimida qurilish ishlari

	Jami mlrd. so'm	o'tgan yilga nisbatan, (%)	jami hajmga nisbatan ulushi, (%)
Viloyat bo'yicha	838,9	108,2	100,0
<i>shaharlar:</i>			
Samarqand sh.	304,6	110,0	36,3
Kattaqo'rg'on sh.	15,5	110,2	1,9
<i>tumanlar:</i>			
Oqdaryo	70,1	106,4	8,4
Bulung'ur	18,7	109,7	2,2
Jomboy	39,4	105,6	4,7
Ishtixon	37,2	105,5	4,4
Kattaqo'rg'on	26,9	108,5	3,2
Qo'shrabot	21,3	105,4	2,5
Narpay	27,3	108,6	3,3
Nurobod	10,5	105,3	1,2
Payariq	55,2	105,7	6,6
Pastdarg'om	53,3	106,6	6,4
Paxtachi	24,4	105,5	2,9
Samarqand	41,1	109,2	4,9
Tayloq	43,2	109,5	5,1
Urgut	50,2	108,2	6,0

Hududlar kesimida qurilish ishlari


(mlrd. so'm)



Qurilish ishlari hajmini o'tgan yilga nisbatan eng yuqori ko'rsatkichda bajarilishi quyidagi shahar va tumanlarda kuzatildi. Jumladan, Samarqand shahrida 304,6 mlrd. so'm, Oqdaryo tumanida 70,1 mlrd. so'm, Pastdarg'om tumanida 53,3 mlrd. so'm, Payariq tumanida 55,2 mlrd. so'mni tashkil etdi.




Hududlar kesimida qurilish ishlari (foiz hisobida)



Qurilish ishlari bo'yicha o'tgan yilga nisbatan eng yuqori darajadagi o'sish sur'atlari quyidagi hududlarda kuzatildi. Jumladan, Samarqand shahrida 110,0 %, Kattaqo'rg'on shahrida 110,2% Bulung'ur tumanida 109,7 %, Tayloq tumanida 109,5 % ni tashkil qildi.

Hududlar kesimida qurilish ishlari qurilish ishlari (jami hajmga nisbatan foizda)



Samarqand viloyati statistika boshqarmasi
Investitsiya va qurilish statistikasi
bo'limi

Nashr uchun mas'ul:
Aloqa telefoni:

I.Raxmatov
(66) 235-60-82